

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN XITOIY TILI FANIDAN MALAKA SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiyasi xitoy tili fanidan o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiya malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonini va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta’minlash, talabgorlarning xitoy tili fani bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

II. Me‘yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi

1. Fonetika
2. Morfologiya
3. Semantika
4. Pragmatika
5. Sotsiolingvistika
6. Leksika
7. O‘qib tushunish

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

Mazmun soha	Kichik mazmun soha	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1. Fonetika	Xitoy tili nutq tovushlarini tahlil. Pinyin prinsiplari, yozuv va talaffuzdagi mos kelmasliklarni aniqlash.	Xitoy tili talaffuz prinsiplari, nutq tovushlari: initsial (shengmu) va final (yunmu) tovushlar, oddiy unlilar, diftonglar, triftonglar, nasal finallar; tonlar (4 asosiy va neytral); bo‘g‘in va intonatsiya; fonetik transkripsiya (pinyin); tovushlarning artikulyatsiyasi; nutq tovushlarini tasniflash.	10 %	4
2. Morfologiya	Grammatik birliklarni morfologik tahlil qilish.	Xitoy tilida fe‘l va ot shakllanishi; hisob so‘zlar; reduplikatsiya; morfemalar (free, bound, derivational, inflectional, lexical, grammatical); affiksatsiya turlari; grammatik kategoriyalar (son, aspekt, zamon, egalik); morfemik tahlil; leksik va funksional morfemalar; morfologik tipologiya.	15 %	6
3. Semantika	Leksik-semantik ma‘nodan o‘rinli foydalanish	Kontekstga mos so‘z tanlash; sinonim, antonim, omonimlarni farqlash; turg‘un birikmalar va frazeologik birliklarning ma‘nosini, tarkibini va nutqdagi vazifasini anglash; leksik-semantik maydonlarni tahlil qilish.	18 %	7
4. Pragmatika	Nutqiy harakatlarni farqlash. Ton, intonatsiya va urg‘uning kommunikativ ma‘nodagi rolini anglash. Muloqotda odob-axloq me‘yorlarini va hurmat ifodalarini qo‘llash.	Nutqiy harakatlar (bayon, so‘roq, iltimos, rad etish, rozilik); kontekst tahlili; ton, intonatsiya va urg‘uning kommunikativ ma‘nodagi roli; muloqotda odob-axloq me‘yorlarini va hurmat ifodalarini qo‘llash.	10 %	4
5. Sotsiolingvistika	Xitoy tilining rasmiy va norasmiy qo‘llanishini farqlash. Ijtimoiy maqomga mos til vositalarini tanlash. Til va madaniyatning o‘zaro ta‘sirini anglash.	Xitoy tilining rasmiy (putonghua) shakllaridan foydalanish; xitoy lahjalari haqida tasavvurga ega bo‘lish; vaziyat va maqomga mos til vositalarini tanlash; til va madaniyat o‘zaro ta‘sirini tushunish; kod-alomlashish va ikki tillilikni aniqlash; hududiy va ijtimoiy variantlarni farqlash; til siyosatini bilish.	10 %	4

6. Leksika	Lugʻat boyligini samarali qoʻllash.	Xitoy tili lugʻat boyligini samarali qoʻllash; asosiy va kengaytirilgan leksik qatlamni bilish; yangi soʻzlarni kontekstga mos ishlatish va ularning uslubiy farqlarini anglash; turgʻun birikmalar (chéngyǔ), idiomatik ifodalarni qoʻllash va ularning nutqdagi oʻrni.	15 %	6
7. Oʻqib tushunish	Matnni oʻqib tushunish va tahlil qilish.	Xitoy tilidagi matnlarni oʻqib tushunish va tahlil qilish; asosiy gʻoya va muhim faktlarni ajratish; xulosa chiqarish; mantiqiy izchillikda fikr bayon qilish; kontekstda soʻz va iboralar maʼnosini aniqlash; matnning tuzilishi va bogʻlanishini tushunish; muloqot va matn turlarining (ilmiy, badiiy, rasmiy) oʻziga xos belgilarini farqlash.	23 %	9
Jami			100	40

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan yondasha olish	25%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda qo'llay olish	50%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan matndagi fakt, dalil va me'yoriy holatlarni taqqoslash, tahlil qilish, matn mazmuniga muvofiq taxmin qilish, matn xronologiyasini aniqlash, xulosa(lar) chiqara olish	25%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi. Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. 汉语水平考试。攻略：阅读与写作。
2. Назарова С., Бадалбаев Д., Розбакиева З. (2022) Ўқув қўлланма (5 синфлар учун). “Фан ва технологиялар нашриёт матбаа уйи”. Т., . – 76 б.
3. Лю Сюнь. (2009) Новый практический курс китайского языка 1, 2, 3, 4. Издательство Пекинского университета языка и культуры. – Пекин. Darslik: 刘珣. 新实用汉语课本 1,2,3,4. 北京语言大学出版社.-北京
4. Стандартное руководство Hsk 3 / Главный редактор Цзян Липин.-Пекин: Издательство Пекинского университета языка и культуры, 2014.6 (перепечатано в 2018.5). Hsk 标准教程 3/姜丽萍主编.-北京：北京语言大学出版社，2014.6（2018.5 重印）
5. Hsk 标准教程 3 练习册/姜丽萍主编. –北京：北京语言大学出，2014.6 （2018.5 重印） . 5. Стандартный курс HSK 3. Сборник упражнений / главный редактор Цзян Липин. – Пекин: Издательство Пекинского университета языка и культуры, 2014.6 (перепечатано в 2018.5)
6. A.Xoliqov “Pedagogik mahorat” darslik, Toshkent-2011, “Iqtisod-moliya” nashriyoti.
7. M.X.Toxtaxodjayeva, “Pedagogik mahorat” darslik, Toshkent-2010.
8. A.Q.Munavvarov “Pedagogika” o‘quv qo‘llanma Toshkent-1996, O‘qituvchi nashriyoti.